

LMRBOQIY ERTAKLAR

«Mening hayotim — turli-tuman voqea-hodisalarga to'lib-toshgan, oq fotiha olgan ajoyib ertakdir. Agar mening bolaligimda, dunyoni yakka-yu yolg'iz sarson-sargardon kezib yurganimda qudratli farishta duch kelib: «Borar manziling va maqsadingni ayt, iqtidoring va oqilona imkoniyatlaringga ko'ra men seni o'z hifz-u himoyamga olaman, hidoyat yo'liga boshlayman», — deganda ham, mening taqdirim hozirgidan ko'ra baxtliroq, oqilonaroq va yaxshiroq bo'lib qolmasdi. Hayotim mobaynida shunga amin bo'ldimki, Tangri mehribondir va har bir xilqatni ezgulik uchun yaratadi».

Buyuk ertakchi Hans Kristian Andersen olamshumul shuhrat cho'qqisiga chiqqan paytlarida. 1855-yilda o'z tarjimayi holida yuqoridagi gaplarni yozgan edi. Ha, yozuvchining taqdiri o'zi kutgan baxt va omaddan ham ziyoda bo'ldi. Buning uchun avvalo u o'zining jozibali, badiiy baquvvat ertaklaridan minnatdor bo'lishi lozim. U ertak yozmaganida ham bir qancha ajoyib roman, pyesa, she'riy majmualar, safar ocherklari va qator novellalar muallifi sifatida daniya adabiyotining klassigi, XIX asr mashhur Ovro'pa yozuvchisi bo'lib qolaverardi. Biroq adibga aynan uning ertaklari olamshumul shon-shuhrat keltirdi va mana, yuz ellik yildan beri uni bolalar ham, kattalar ham sevib o'qib kelmoqdalar. Bugungi kunda jahon bolalar adabiyotini Andersenning «Qor malikasi», «Bulbul», «Suv parisi». «Qirolning yangi libosi», «Dyuymchaxon», «Irkrit o'rdakcha», «Ole Lukoye» kabi ertaklarisiz tasavvur etish mumkin emas.

Hans Kristian Andersen 1805-yilda Daniyaning qadimiy shahri Odenzeda etikdo'z oilasida dunyoga keldi. Bu shahar Fyun oroli adirlarida joylashgan bo'lib, yog'ochdan yasalgan o'yinchoq shaharga o'xshab ketardi. Andersen ertaklaridagi ko'pgina voqea-hodisalar ham xuddi shunday afsonaviy shaharlarda bo'lib o'tadi.

Hans oilada yolg'iz farzand edi. U erkin va muhtojlik ko'rmay ulg'aydi, bu uning pokiza, orzumand qalbida o'chmas muhr qoldirdi. U umr bo'yi har qadamda uchraydigan hayot g'aroyibotlaridan, yaxshiliklardan zavqqa to'lib yashadi. Lekin uning hayot yo'li hamisha tekis va ravon bolgani yo'q. U, ayniqsa, yoshligida qattiq iztiroblar chekdi, lekin bundan esankirabqolmadi, qalbida insonlarga nisbatan xayrixohlik, adolat uchun jonkuyarlik, har bir narsadan go'zallik izlash fazilatlarini asrab qoldi.

Va o'zining butun xushfelligini, eng go'zal tuyg'ularini ajoyib-g'aroyib ertaklariga jo eta bildi.

Andersen ertaklari dunyo bo'ylab tarqalishining, shabnamdek shaffof bola qalbi yashaydigan har bir xonadonga kirib borishi va u yerda uzoq yillar yashab qolishining qator sabablari bor, albatta.

Uning ertaklariga bo'lgan bunday yuksak muhabbatining asosiy sabablaridan biri har tomonlama keng hayotiy donishmandlikning soddagina tilda ifoda etilishidir.

Andersen xalq ertaklarini qayta hikoya qilish va shu janrda asar bitishga ilk bor 1829-yilda urinib ko'rgan edi.

U «Sharpa» degan ertak bitib, uning so'zboshisida bunday deb yozgan edi: «Bolaligimda

men hammadan ko'proq ertak tinglashni yoqtirar edim, ularning deyarli barchasi hamon xotiramda turibdi, bundan ba'zilar boshqlarga uncha tanish bo'lmagan yoki butunlay notanish ertaklardir; ulardan birini men qayta hikoya qilib beraman va agar uni xayrixohlik bilan qabul qilishsa, boshqasiga o'taman va shu tariqa qachondir kelib bolalar xalq ertaklari turkumini yaratajakman». Qizig'i shundaki, bu ertaklarni yaxshi qabul qilishmadi, hatto munaqqidlar unga bu ishni yig'ishtirib qo'yishni maslahat berishdi. Lekin Andersen o'zining bu sevimli janriga qayta-qayta murojaat qildi va oradan olti yil o'tgach o'zining ilk ertaklar to'plamini chop ettirdi. Bu to'plam uning hayotini tubdan o'zgartiribgina qolmay, butun daniya adabiyotini yangilab yubordi. Ana shu ilk to'plamidayoq u yangi yozma tilni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bu har qanday mantiqdan va lisoniy qonun-qoidalardan xoli bo'lgan bolalarning sodda so'zlashuv tili edi. U o'zining sodda va aniq tili bilan kattalar qo'llaydigan barcha so'z va ifodalarni, ayniqsa, mavhum tasvirlarni inkor etdi. Bu ertak usulida hikoya qilishning o'ziga xos shakli Andersen ijodida rivojlana borib, amalda takomil bosqichiga yetdi.

Jajji kitobxonlar uning ertaklaridan zavq-shavqlarga to'lar edilar. Hikoya qilishning aniq, bevosita usuli bolalar zehniga juda omilkorlik bilan moslashtirilgan edi. Uning ertaklaridagi voqea-hodisalar nihoyatda aniq tartibotga ega. Ular mantiqiy ketma-ketlikda sodir bo'ladi. Birorta ham ortiqcha so'zga o'rin berilmaydi. Binobarin, Andersen ertaklari detallarga juda boy bo'lib, ular personajlarni hamda voqea kechayotgan vaziyatlarni jonli, kitobxonga juda tanish va uning qalbiga yaqin qilib qo'yadi.

Hans Kristian Andersenning eng yaxshi ertaklaridan biri, albatta, «Qor malikasi»dir. Bu ertak o'ta favqulodda va aqlga sig'maydigan voqea-hodisalarni Andersen juda ishonarli hikoya qila bilishining eng yorqin misolidir. Jajji, nozikkina, olijanob va dovyurak qiz Gerda o'z tutingan akasi Kayni izlab shimolga yo'l oladi va juda g'aroyib voqealarni boshidan kechiradi. Biroq u borib qoladigan joylarning shart-sharoiti qanchalik favqulodda bo'lmasin, u joylardagi har bir mavjudot bizga tanish insoniy xususiyatlarga ega. Qaroqchilarning qo'rqinchli to'dasi o'ta qo'pol va mehr-shafqatdan yiroq, qaroqchi kampir qonxo'r, lekin hech biri insoniy alomatlardan xoli emas. Lapland kampir fin ayoliga maktub yozib bermoqchi bo'ladi, biroq uning qog'ozi yo'q, shuning uchun ham xatni treska baliqqoqisiga bitadi. Sehrli duolarni o'qiyotganida fin xotini zo'riqqanidan jiqqa terga tushadi. Hatto sovuqqon qor malikasida ham o'ziga xos joziba borki, kichkina Kayni u ana shu jozibasi bilan o'ziga maftun etadi. Bularning barchasi ertaklarni favqulodda jonli, ishonarli va juda qiziqarli chiqishiga sabab bo'ladi.

«Dyuymchaxon» ertagi ham «Qor malikasi»ga juda yaqin turadi. Bolalarga juda tanish va sevimli bo'lib qolgan bu ertak faqat adolat, go'zallik, olijanoblik va insoniylik kabi yuksak fazilatlarining ochko'zlik, xasislik va ma'naviy ko'rlik ustidan tantanasi bo'libgina qolmay, balki ushbu janrning ajoyib mumtoz namunasi. Lekin oldindan shuni aytib qo'yish joizki, Andersen ertaklarining eng muhim jihati ularning betakrorligidadir. Hikoya qilish usulining umumiyliги va muallif uslubining barqarorligidan qat'i nazar, uning har bir ertagi o'ziga

xosdir. Bu xususiyai Andersen ijodining jozibadorligini ta'min etadi. Masalan, «Qor malikasi» ertagidan farqli o'laroq, «suv parisi» ertagi baxt-saodatga noil bo'lish bilan yakunlanmaydi: suv parisi shahzoda muhabbatiga erisha olmay halok bo'ladi. Nega shunday bo'ldi? Nima uchun ertak qahramonining orzulari hayotda ro'yobga chiqmadi? Birinchidan, garchi muallif bolalarni o'z kitobxonlarining bir qismi sifatida nazarda tutsa ham, lekin uning ertaklari bevosita faqat bolalarga mo'ljallangan emas. Ikkinchidan esa, yozuvchi o'z asarlarini ko'p hollarda ertaklar deb emas, balki ertakchilik ohangi saqlab qolingan va hikoya qilish usuliga alohida ertak unsurlari singdirib yuborilgan voqealar deb ataydi. Qolgan barcha jihatlarni muallif hayotdan olgan. Muallif hayoti esa, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdk, juda murakkab kechgan. Umuman olganda, Andersen ertaklarining mazmunini hikoya qilib berish maqsadga muvofiq emas.

Bu faqat ertakning xunuk nusxasi bo'lib qoladi, xolos. Yaxshisi, bu ertaklarni qayta-qayta o'qish kerak.

Pirovardida esa, bizning fikrimizcha, Andersenning kishilarni hayajonga soladigan bu ertaklari o'zbek kitobxoni uchun yanada yaqin va qadrdon bo'lib qoladi.

... Andersen juda ko'p asarlar yaratdi, lekin faqat ertaklarigina unga o'chmas nom baxsh etdiki, ulardan eng saralari ushbu kitobchadan joy olgandir.

Farhod Hamroyev, filologiya fanlari nomzodi